

ADABIYOTDA REALIZM VA MODERNIZM OQIMLARI: O'ZARO BOG'LIQLIK VA BADIY IZLANISHLAR

Yokubbayeva Umida Abduvaxob qizi

Filologiya kafedrası dotsenti v.v.b,

Parpiyeva S

Filologiya kafedrası 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada realizm va modernizm oqimlarining o'zaro bog'liqligi, ularning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni hamda o'zbek adabiyotidagi namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. Realizm voqelikni hayotiy aniqlikda tasvirlasa, modernizm insonning ruhiy olami, ichki kechinmalarini badiiy talqin qilishga e'tibor qaratadi. XX-XXI asr o'zbek adabiyotida bu ikki oqimning uyg'unlashuvi alohida dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, modernizmning ruhiy kechinmalarni tasvirlashdagi o'rni tahlil qilinarkan, Rauf Parfi ijodidagi iztirob, falsafiy o'y va insonning botiniy dunyosi ifoda etilgan misralar zamonaviy adabiyotning modernistik yo'nalishiga xos talqinlar sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *realizm, modernizm, postmodernizm, adabiy oqim, badiiy tafakkur, ong oqimi, ichki monolog, ramziy obraz, ramz, estetik imkoniyat.*

ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТЕЧЕНИЯ РЕАЛИЗМА И МОДЕРНИЗМА: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИЗЫСКАНИЯ

Ёкуббаева Умида Абдувахаб кизи

Доцент (и.о.), доктор философии

Парпиева С

Студентка 1-курса кафедры филологии

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь течений реализма и модернизма, их роль в развитии художественного мышления, а также особенности их проявления в узбекской литературе. Если реализм изображает действительность с жизненной точностью, то модернизм сосредотачивается на художественном осмыслении внутреннего мира человека, его духовных переживаний. В узбекской литературе XX–XXI веков особую актуальность приобретает синтез этих двух направлений. Кроме того, при анализе роли модернизма в изображении духовных переживаний приводятся примеры из творчества Рауфа Парфи, в которых отражены мотивы внутреннего страдания, философского размышления и внутреннего мира человека как характерные черты модернистского направления в современной литературе.*

Ключевые слова: *реализм, модернизм, постмодернизм, литературное направление, художественное мышление, поток сознания, внутренний монолог, символический образ, символ, эстетические возможности.*

REALISM AND MODERNISM IN LITERATURE: INTERRELATION AND ARTISTIC EXPLORATIONS

Yokubbayeva Umida Abduvakhob kizi

Associate Professor of the Department of Philology, PhD,

Parpiyeva S

First-year student of the Department of Philology,

Abstract: *This article analyzes the interrelation between the literary movements of realism and modernism, their role in the development of artistic thinking, and the specific features of their manifestation in Uzbek literature. While realism depicts reality with lifelike accuracy, modernism focuses on the artistic interpretation of the human inner world and psychological experiences. In Uzbek literature of the twentieth and twenty-first centuries, the integration of these two movements has gained particular relevance. Furthermore, in examining the role of modernism in portraying inner experiences, examples from the works of Rauf Parfi are highlighted, in which inner anguish, philosophical reflection, and the spiritual world of the individual are expressed as characteristic interpretations of the modernist trend in contemporary literature.*

Keywords: *realism, modernism, postmodernism, literary movement, artistic thinking, stream of consciousness, inner monologue, symbolic image, symbol, aesthetic potential.*

KIRISH

Adabiyot so'zi arabcha "adab" so'zining ko'plik shakli bo'lib, "chiroyli xulqlar" ma'nosini ifodalaydi [8,2]. Adabiyot inson qalbining tarjimoni, hayotning badiiy ifodasidir. Unda jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, ruhiy kechinmalari o'z aksini topadi. Har bir davr o'z estetik qarashlarini, badiiy mezonlarini yaratadi. Shu bois, adabiyotda turli oqim va yo'nalishlarning paydo bo'lishi tabiiy jarayondir. Ana shunday oqimlardan eng muhimlari realizm va modernizmlardir. Ularning har ikkisi o'z davrining ruhini, insonning ichki dunyosini, jamiyat bilan ziddiyatini yoritishga intilgan.

ASOSIY QISM

Realizm (lot.realis – haqiqiy) XIX asr adabiyotida shakllanib, hayotni bor holicha, haqiqatga sodiq tasvirlashni maqsad qilgan. Realistik asarlar voqelikni bezamasdan, uni tahlil etish, sabab-oqibat bog'lanishlarini ochish orqali o'quvchiga hayot saboqlarini berishga intiladi. Realizm dunyo mamlakatlarida turlicha ko'rinishda shakllangan. Jumladan, G'arbiy Yevropa, Rossiya va O'zbekistondagi bu yo'nalishda asar yaratilishi bir-biridan o'zaro farqlangan, biroq bu janr asosida yotuvchi hayotni haqqoniy aks ettirish, ijtimoiy muammolarni ko'tarishaniqlik bilan ochiq-oydin namoyish qilish, inson tabiatini o'rganish kabilar o'zgarmay qolgan. Bu haqda B.Karimov "Jahon va o'zbek adabiyotida realizm tamoyillari" nomli ilmiy me'rosida ham asosli nazariyalar berib o'tilgan [4]. Realizm turli davlat adabiyot namunalari turli shaklda uchraganligi ularni tadqiqidagi farqlarni keltirib chiqargan. Adabiyotshunos olimlar mazkur yo'nalish

xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etishgan. Jahon adabiyotshunosligida J.Vilson [12], V.Ivanov [9], D.Kim [3], S.Mitchel [10], L.Peterson [6] kabi olimlar realizm adabiyot na'munalarini chuqur tadqiq etishgan. Shuningdek, A.Baydabek [1] o'z tadqiqotida realizm taraqqiyoti uning Yevropa madaniyatiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Olim realistik foding boshqa yo'nalishdagi tasvir xususiyatlari bilan qiyoslagan. Rus adabiyotshunosi N.Sorokina [11] rus adabiyotida realizmining xususiy belgilari, taraqqiyod davri bosqichma-bosqich yoritgan. Shuningdek, rus adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni, taraqqiyotiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda [2,4,5,7,8] o'zbek adabiyotida realizm oqimining asoschilari sifatida Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, O'tkir Hoshimov, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilar esga olinadi. Ularning asarlarida xalq taqdiri, jamiyatdagi adolatsizlik, inson orzu-armonlari va ruhiy iztiroblari chuqur tasvirlangan. Masalan, Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida [14] millat hayoti, muhabbati va ijtimoiy ong o'zaro uyg'unlikda ifodalangan. Zamonaviy realizmda Xurshid Do'stmuhammad ham o'ziga xos o'ringa ega. Adibning "Boqiy darbadar", "Oq shamol", "Qorako'z Majnun" kabi asarlarida sodda voqealar orqali insonning ma'naviy olami, hayotiy tanlovlari va ruhiy iztiroblari tasvirlangan. Yozuvchining quyidagi fikri realizmning zamonaviy mohiyatini aniq ifodalaydi:

"Hayot ko'pincha sodda voqea ortiga yashirinadi, yozuvchi esa uni ko'ra bilishi kerak".

Mazkur fikr orqali adib realizmning asosiy maqsadini – hayotning asl, pardalanmagan haqiqatini ifoda etadi.

Modernizmning vujudga kelishi va mohiyati XX asr boshlarida inson tafakkurida tub o'zgarishlar yuz berdi. Ilm-fan taraqqiyoti, urushlar, ruhiy iztiroblar badiiy tafakkurda yangicha ifoda vositalarini talab etdi. Shu davrda modernizm oqimi shakllandi. Modernistlar uchun asosiy masala sifatida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ong oqimini tasvirlashdir. Modernizm adabiyotga tashqi voqelikdan ko'ra ichki olam, ya'ni inson qalbidagi iztirob, yolg'izlik, hayot ma'nosi kabi tushunchalarni markazga chiqardi. Cho'lpon, Usmon Nosir, Mirtemir kabi ijodkorlar modernistik milliy davr va shaxs kechinmalarini badiiy ramzlar, ichki monologlar orqali yoritgan. Cho'lponning "Kecha va kunduz" [15] asarida inson ruhining parokandaligi, jamiyat bilan ziddiyati, erkka intilish motivlari modernistik ruhda ifodalangan. Modernizmning ruhiy-intellektual oqimini chuqur his ettirgan shoirlardan biri Rauf Parfidir. Uning she'rlarida insonning ichki iztirobi, kechinmalari, mavjudlik va ma'nosizlik o'rtasidagi ziddiyatlar teran badiiy talqin topadi. Uning mashxur satrlaridan biri:

"Men yo'qman, lekin borligim yondiradi olamni...", – modernizmga xos falsafiy iztirob, mavjudlikning mavhum talqinini ifodalaydi.

Yana bir ramziy misrasi:

"Ko'zlarimda ming asrning qora yeli uvillaydi..." – inson ruhidagi bo'shliq, ichki shamollar, iztirob va yolg'izlikni kuchli badiiy obraz orqali tasvirlaydi. Bu misralar modernizmning psixologik tahlil, ramziy obraz va ruhiy kechinma markazidagi badiiy yo'nalishini yanada yorqinlashtiradi.

Realizm va modernizm alohida yo'nalishlar bo'lsa-da, ularning o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud, chunki ular bir-birini to'ldiruvchi hodisalar hisoblanadi. Realizm tashqi haqiqatni, jamiyatdagi voqelikni tahlil qilsa, modernizm insonning ichki olamini tadqiq etadi.

Shunday qilib, biri tashqi, ikkinchisi ichki haqiqatni yoritadi. Bugungi zamonaviy adabiyotda bu ikki oqim ko'pincha uyg'un tarzda qo'llanmoqda. Masalan, Erin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilar asarlarida realizmning hayotiy aniqligi bilan modernizmning ruhiy chuqurligi birlashgan.

Bugungi o'zbek adabiyoti postmodern tafakkur sari yuz tutmoqda, biroq realizm va modernizm tamoyillari hanuz dolzarbdir.

Yangi avlod yozuvchilari hayot haqiqatini zamonaviy uslublarda, ramz, ichki monolog, psixologik tahlil orqali ifodalashga intilmoqda.

Bu esa milliy adabiyotimizning estetik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa

Realizm va modernizm adabiyot tarixidagi ikki asosiy oqimdir. Ular insoniyat tafakkurining ikki qirrasini namoyon etadi.

Bular realizm hayotning tashqi haqiqatini, modernizm esa insonning botiniy olamini aks ettiradi. O'zbek adabiyotida bu ikki yo'nalish uyg'unlashib, milliy ruh bilan boyitilgan yangi badiiy izlanishlarga keng yo'l ochdi.

Shunday qilib, realizm va modernizm adabiyotning rivojlanishida bir-birini to'ldiruvchi bosqichlar sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baydabek A. Evropa adabiyotida realizm. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Hamdam I. Adabiyot va zamon. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
3. Kim D. Razvitie realisticheskoy zhivopisi: ot XIX veka do sovremennosti. Moskva: Iskusstvo, 2021.
4. Karimov N. O'zbek adabiyotida modernizm izlanishlari. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Karimov B. Jahon va o'zbek adabiyotida realizm tamoyillari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Peterson L. The Philosophy of Realism in Art and Literature. Cambridge University Press, 2019.
7. Qo'chqorov R. O'zbek adabiyotida realizmning shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Adabiyot, 2019.
8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480.
9. Ivanov V.V. Realizm kak hudozhestvenniy metod. Moskva: Nauka, 2019.
10. Mitchell S. Realism and Modernism: Continuity and Change. New York: Columbia University Press, 2017.
11. Сорокина Н. Русский реализм XIX века и его влияние на мировую литературу. Санкт-Петербург: Алетейя, 2020.

12. Wilson, J. The Origins and Development of Realism in European Literature. Oxford University Press, 2018.
13. Ulug'ov N. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
14. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019.
15. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2018.